

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUHAMMAD HUMAYUN NADIM**

**SHIMOLIY AFG'ONISTON O'ZBEKLARI TO'Y MAROSIMI  
ETNOGRAFIZMLARINING TIZIMIY VA LEKSIKOGRAFIK  
XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O'zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Termiz – 2022**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Muhammad Humayun Nadim**

Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimi etnografizmlarining tizimiylar . . . . . 5

**Muhammad Humayun Nadim**

Systemic and lexicographic features of ethnographies in the wedding ceremonies of Uzbeks  
in northern Afghanistan . . . . . 25

**Мухаммад Хумаюн Надим**

Системные и лексикографические особенности этнографизмов свадебных церемоний  
узбеков северного Афганистана . . . . . 46

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUHAMMAD HUMAYUN NADIM**

**SHIMOLIY AFG'ONISTON O'ZBEKLARI TO'Y MAROSIMI  
ETNOGRAFIZMLARINING TIZIMIY VA LEKSIKOGRAFIK  
XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O'zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Termiz – 2022**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fill1717 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan

Dissertsiya Ternim davlat universiteti bo'yini  
Dissertsiya avtoreferatiga tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining  
(www.tersu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'limgiz portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ummiy rahbar

**Mengliev Baxtiyor Rajabovich**  
filologiya fanları doktorı, professor

#### Rasmiy opponentlar:

**Xudoyberganova Durdona Siddiqovna**  
filologiya fanlari doktori, professor  
**Sobirov Abdulhay Shukurovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

## **Yetakchi tashkilot;**

Oarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2022 yil «28» 02 soat 13:00 da  
dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876)  
221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

(**46**) Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil «21» 02 kuni tarqatildi.  
(2022-yil «21» 02 dagi 11 raqamli reyestr bayonnomasi)



**B.Umurqulov**  
niy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
si, filologiya fanlari doktori, dotsent

A.Eshmuminov  
darajalar beruvchi ilmiy kengash  
otibi, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

*H* Sh.Maxmaraimova  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahon tilshunosligida xalqlarning moddiy va ma’naviy madaniyati, turmush tarzi, milliy urf-odat va qadriyatlari bo‘yicha lingvomadaniy axborotni o‘zida jamlovchi etnografik leksikani keng o‘rganish va tillarning noyob xazinasi bo‘lgan etnografizmlarni kelajak avlodlarga yetkazib berish masalalariga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Zero, etnografizmlar umummilliy etnografik leksika bilan tarixiy-genetik jihatdan mushtaraklik kasb etgan holda o‘zida moddiy va ma’naviy madaniyatni aks ettiruvchi alohida etnomadaniy mazmunni tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan etnografizmlarning leksik-semantik xususiyatlarini lingvomadaniy aspektda tizimli o‘rganish soha taraqqiyotini ta’minlaydigan muhim omillardan.

Dunyo tilshunosligida til va madaniyat munosabati masalalari dastlab lingvistik antropologiya va tarixiy antrpologiya bo‘yicha tadqiqotlar ko‘rinishida o‘rganilgan. Bugungi kunda etnografizmlarni o‘rganish doirasi kengayib bormoqda. Xususan, Yevropa tilshunosligida etnolingvistika muammolari tadqiqiga chuqurroq kirib borildi. Masalan, slavyan<sup>1</sup>, uning tarkibiga kiruvchi va rus tilidan tashqari Rossiyadagi turkiy qavmlar bo‘lgan kuban<sup>2</sup>, boshqird<sup>3</sup>, tatar<sup>4</sup>, buryat<sup>5</sup>, qorachoy-bolqar<sup>6</sup>, chuvash<sup>7</sup>, mari, udmurt va boshqa tillarning etnik xususiyatlari, leksik sohasi, ularning lug‘atlarda berilishi masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Turkiyshunoslikda ozar tilining maxsus etnografik atamalar lug‘ati yaratilgan,<sup>8</sup> qozoq tilshunosligi ham bu borada yetakchilik qiladi<sup>9</sup>.

---

<sup>1</sup> Славянские древности: этнолингвистический словарь: в 5 т./ под ред. Н.И.Толстого. – М.: Международные отношения, 1995–2012.; Плотникова А.А. Этнолингвистический словарь как лингвистически, этнографический и фольклорный источник (на материале славянских языков и традции). Дисс. на соискание учёной степени кан. фил. наук. – М., 1990.

<sup>2</sup> Финько О. С. Лексика свадебного обряда Кубани (на материале обрядовой практики станицы Черноерковской Краснодарского края). Автореф. дис. кан. фил. наук. – Курск, 2011.

<sup>3</sup> Багаутдинова М.И. Этнографическая лексика башкирского языка. – Уфа: РИО РУНМЦ, 2002. – С. 11; Ишбердин Э.Ф. Названия животных и питц в башкирских говорах. Автореф.дисс.канд.фил.наук. – Уфа, 1970; Самситова Л.Х. Безэквивалентная лексика башкирского языка. Автореф.дисс.канд.фил.наук. – Уфа, 1999.

<sup>4</sup> Этнография татарского народа. – Казань: Магариф, 2004.– С. 287; Татар теленең диалектологик сүзлеге. – Казан: Тат. кит. нәшр., 1993.

<sup>5</sup> Дондокова Д.Д. Лексика духовной культуры бурят. – Улан-Удэ, 2003; Манжиев И.А. Бурятские шаманистические и дошаманистические термины. – М, Наука, 1978.

<sup>6</sup> Аппоев А.К. Этнографическая лексика карачаево-балкарского языка. Дисс... кан. фил. наук. – Нальчик, 2003; Семенова И.Дж. Параметрический анализ лексики карачаево-балкарского языка на тюркском фоне. Дисс. кан. фил. наук. – Воронеж, 2017.

<sup>7</sup> Дегтярев Г.А. Лексика земледелия в чувашском языке. – М., 1987.

<sup>8</sup> Азэрбаіҹанча-русча етнография терминләри лугэти. – Бакы, 1987.

<sup>9</sup> Шамшатова А. Лексика злаковых культур в казахском языке. Дисс. канд. фил. наук. – Алма-Ата, 1966; Жанпейсов Е.Н. Қозоқ тилининг этник-маданий лугати. – Алма-Ата, 1983; Жилкубаева А.Ш. Термины питания в казахском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1991.

O‘zbek tilshunosligida etnografizmlarni ma’lum bir hududda yashab kelayotgan xalqning qadimiy urf-odatlari, madaniyati, an’ana va udumlarini o‘zida ifodalaydigan milliy va dialektal leksik qatlam sifatida lingvomadaniy va lingvokognitiv jihatdan tekshirish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan. Tillardagi etnografizmlarni tarixiy-ijtimoiy va lingvistik asoslarini tadqiq etish muayyan xalqning milliy tili, tarixi, urf-odatlari, an’analari, madaniy merosi va hayotiy qadriyatları haqidagi bilimlarni boyitadi. “Hozirgi kunda o‘zbek tili hayotimizning barcha jahbalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san’at sohalarida faol qo’llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda”<sup>10</sup>. Mazkur fikrlar, albatta, o‘zbek, shuningdek, qo‘sni hamda jahon xalqlari (ayniqsa, Afg‘on) tilshunosligida amalga oshirilayotgan etnoijtimoiy va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi etnografik plandagi ilmiy tadqiqotlarga ham taalluqlidir. Binobarin, Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari nutqida saqlanib qolgan va asta-sekin unut bo‘layotgan etnografik, etnografik-dialektal leksik birlik va marosimlarning asosiy leksik-semantik belgilarini jahon tilshunosligining so‘nggi yutuqlaridan, zamonaviy tilshunoslikning yangi metodlaridan foydalangan holda tadqiq etish hamda dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zarurati etnografik leksikani, shu jumladan, Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimi etnografizmlarini tarixiy va qiyosiy-tipologik usullarda keng ko‘lamda tadqiq etishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4997-son farmoni 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 16-fevraldagagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-sonli farmonlari; 2017- yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22- maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 304-sonli qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni, 2017-yil 17-fevraldagagi “Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiytadqiqot ishlarini tashkil etish boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son qarori, 2019-yil 4-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4479-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi VMQ №222-son “2010-2020-

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили хақида” ги Конуни қабул қилингандигининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ги ПК-4479-сон Қарори.

yillarda Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy huquqiy, madaniy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida til va madaniyat aloqalariga doir qarashlar dastlab antropologik tadqiqotlar zamirida shakllangan. Yevropada esa bu masala Amerika tilshunosligidan farqli o‘laroq, etnolingvistika fanining alohida sohasi sifatida jadal rivojlandi.

Har bir millatning tilini uning urf-odatlari, an’analari va qadriyatlaridan ajratgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Etnografik leksika nomi ostida birlashgan etnografizmlarni o‘rganish milliy urf-odat va qadriyatlar leksikasini tadqiq etishda ahamiyatli. Urf-odatlar muayyan etnosning o‘ziga xosliklarini namoyon etib, butun etnografik sistemada differensial vazifa bajarishi bilan tilshunoslik sohasida muhim. “An’analalar qadim-qadimdan insoniyat hayotidagi eng yaxshi, ibratli, ayni paytda, uning turmushi va ijtimoiy faoliyati, mehnati, ibratli hayot saboqlari bilan bog‘liq. Ularni avlod-u ajdodlar uchun yo‘l-yo‘riq darslari desak yanglishmagan bo‘lamiz”<sup>11</sup>.

O‘zbek tilshunosligida etnografizmlarning o‘rganilishi bo‘yicha, asosan, XX asrning 70-80-yillarida zamonaviy tadqiq usullari asosida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Sobiq ittifoq davrida xalq urf-odatlariga yetarli darajada e’tibor berilmasdan, ularni “eskilik sarqiti” deya baholanishi bu boradagi ilmiy tadqiqotlar doirasini ham cheklab qo‘ygan. Muammo doirasidagi ilk tadqiqot ishlarini A.Jo‘rboev va Z.Husayinovalar amalga oshirdilar<sup>12</sup>. A.Jo‘rboev o‘z tadqiqot ishida O‘zbek xalqining xilma-xil ko‘rinishga ega urf-odatlari mavjudligi va ularning tilshunosligimizda ataladigan nomlari hamda ularni o‘rganishning nazariy-amaliy ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgani.

Umuman, o‘zbek tilshunosligida N.Mirzayev, L.Xudoyqulova, S.Davlatov, S.Soatova, O.Ismonova, Sh.Nurullayeva, G.Tosheva, Y.Bobajanov, M.Qahhorova, N.R.Amonturdiyev kabi tadqiqotchilarning ishlarida urf-odat, an’ana va etnografizmlar keng o‘rganilgan<sup>13</sup>. Bu tadqiqotlarda to‘y marosimi

<sup>11</sup> Муродов М, Қорабоев У, Рустамов Р. Этномаданият. – Тошкент: Адолат, 2003. – Б. 23.

<sup>12</sup> Джуррабоев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке: Авторефер. Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1971; Хусаинова З. Ономасиологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материалах Бухарской группы говоров) Авторефер. Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987.

<sup>13</sup> Худойқурова Л. Сурхондарё тўй маросим қўшиклари. номз. дисс. – Тошкент, 2011. Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фолклори. номз. дисс Тошкент, 1996. Соатова С. Юкори Зарафшон воҳасининг никоҳ тўйи маросимлари. номз. дисс. – Тошкент, 1999. Исмонова О. Ўзбек тўй

nomlarini lingvistik nuqtai nazardan tahlil etish haqidagi ayrim qarashlar mavjud bo‘lsa-da, to‘y marosimi etnografizmlarining lisoniy xususiyatlarini muayyan hudud miqyosida o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Turkiy tilshunoslikda etnografizmga oid bo‘lgan ishlar M.I.Byatushgova, A.K.Apoyev<sup>14</sup> kabi tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida ham ko‘zga tashlanadi. Etnografizmlarni o‘rganish bevosita tarixiy etnologiya fanlari bilan bog‘liq. Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek etnografizmlari yaxlit holatda tilshunoslik tamoyillari asosida o‘rganilgan emas, ammo folkloristika yo‘nalishida ba’zi tadqiqotlar amalga oshirilganini aytib o‘tish o‘rinli. Karamilloh Oyghagh<sup>15</sup>, Asaluddin Nazamudin<sup>16</sup> kabi olimlarning tadqiqotlarida folklor-etnografik marosim va xalq qo‘shiqlari nomlari, ularning tadrijiy taraqqiyoti haqida bayon etilgan.

Mazkur ikki hudud orasidagi madaniy-ijtimoiy aloqalar doimo faol bo‘lgan. Aslan bir hududda yashovchi, bir xalqqa mansub bo‘lgan ikki hududning urfatlari umumiylilik va o‘ziga xoslikni namoyon etadi. Bu mushtaraklik va farqlarni to‘y marosimi etnografizmlarida ham kuzatish mumkin.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi:** Tadqiqot Termiz davlat universiteti istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek nutqshunosligi: badiiy nutq tahlili, antroposentrik nazariya, etnolingvistika, korpus tilshunosligi” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Shimoliy Afg‘oniston hududida yashovchi o‘zbek elatlarining to‘y marosimlariga oid etnografik leksikaning tilda aks etishini ko‘rsatish, etnografizmlarning etnomadaniy, leksik-semantik va leksikografik xususiyatlarini aniqlash va ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklarining to‘y bilan bog‘liq etnografik leksikasini leksik-semantik tadqiq etish;

Shimoliy Afg‘oniston hududidagi o‘zbeklarning etnografik leksikasining tarixiy taraqqiyoti hamda bu jarayonga ta’sir qiluvchi omillarni tavsiflash;

Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y-marosim etnografizmlarining tarixiy- etimologik, tizimiyl xususiyatlarini tahlil qilish;

---

маросим фолклорида “Келин салом” жанри (генизиси, ўзига хос хусусиятлари ва поетикаси) ном. дисс. – Тошкент, 1999. Нуруллаева Ш. Туркистон қарлук тип шеваларидага тўй маросим номлари номз... дисс. – Тошкент, 1998. Бобажонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси.номз... дисс. – Тошкент. 1997. Қаҳҳорова М. Ўзбек этнографизмларининг систем тадқики. номз... дисс. – Тошкент. 2011. Амонтурдиев Н.Р. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фак.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Гулистан, 2020

<sup>14</sup>Бягаутдшрова М.И. Этнографическая лексика башкирского языка. Автореферат диссертации на сопекание ученой степени кандидата филологических наук. Уфа, 1997; Аппоев А.К. Этнографическая лексика карачаево-балкарского языка. Автореферат диссертации на сопекание ученой степени кандидата филологических наук. Қозон 2004.

<sup>15</sup> Karimullah Oyghagh. Afganistan’ın Tahhar şehrinde yaşayan özbek türklerinin folkloru. Yüksek lisans tezi. Erzurum, 2019. – S. 320.

<sup>16</sup> Asaludin Nazamudin. Sabzvan кошиклари. Yüksek lisans tezi. Ankara, 2012. – S. 380.

Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimi etnografizmlarining leksikografik tadqiqi masalalarini lingvistik tahlil qilish asnosida "Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimi etnografizmlari izohli lug'ati"ni yaratishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish.

**Tadqiqotning obyekti** Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimlarini ifodalovchi etnografik leksika.

**Tadqiqotning predmetini** Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimi etnografizmlarining tarixiy-etimologik xususiyatlari, mavzuviy guruhlari, ma'noviy va struktur jihatni hamda leksikografik talqini masalalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik, qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Shimoliy Afg'oniston o'zbeklarining to'y-marosim va u bilan bog'liq bo'lган Islom dini va u asosida shakllangan etnografizmlarning hudud aholisi etnomadaniy hayotiga, turmush tarziga ta'sir qiluvchi omil ekanligi tarixiy lug'atlar va og'zaki nutqda uchraydigan etnografizmlar asosida ochib berilgan;

Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y-marosim etnografizmlarni bir til oilasi doirasida (o'zbek va turk) va turli tizimli tillar asosida (o'zbek va fors) lug'atlashtirish lozimligi belgilab berilgan;

Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y-marosim etnografizmlarining lingvistik jihatdan tarixiy-etimologik kelib chiqishining ildizlari VII asrga borib taqalishi va XV asrda to'liq shakllanganligi dalillangan;

Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari marosimlarida O'zbekiston Respublikasi hududida uchramaydigan to'y-marosim etnografizmlarining ma'noviy, mavzuviy hamda shakliy jihatdan farqlanishi aniqlanib, ikki hududda ham mushtarak-teng ishlataladigan bir tilda muloqot qiluvchi insonlar turmush-tarzida bir xil ifodalanadigan etnoleksik birliklar aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishini yoritish jarayonida o'zbek tilshunosligida etnografizm va dialektologiya sohalarida izlanishlar olib borgan A.Jo'rboyev, N.Mirzayev, Y.Bobojonov, Sh.Nurullayeva, M.Qahhorova, R.Kasimova, A.Xonxo'jayeva, G.Adilova, N.Amonturdiyev kabi tilshunos olimlar ishlarida ilgari surilgan g'oyalar, fikr va qarashlar foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining ilmiy-nazariy ahamiyati etnolingvistika, leksikografiya, til, etnos va madaniyat masalalari yuzasidan fundamental tadqiqotlar olib borishda, Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari tilidagi etnografizmlarni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishda, shuningdek, dialektologiya, til tarixi, lingvokulturologiya, semasiologiya, etnolingvistika sohalarini rivojlantirishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Amalga oshirgan tadqiqotimizning amaliy natijalari Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari etnografizmlarining mukammal lug'atlarini ishlab chiqishda, hudud etnografizmlari bo'yicha qo'llanmalar hamda tanlov fanlari bo'yicha materiallarni yaratishda, qolaversa, o'zbek tilining milliy korpusini yaratish uchun qimmatli

material bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek xalqining to‘y-marosim urf-odatlarini saqlab qolish, ushbu marosim nomlari haqida kelajakda mufassal va to‘liq ma’lumotlarni yozib avloddan avlodga yetkazish uchun va o‘zbek xalqining unut bo‘layotgan etnografizmlarini saqlab qolish, qayta tiklash uchun dissertatsiya materiallaridan foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y-marosim etnografizmlarini leksikografik hamda tizimiylardan tadqiq qilish asosida olingan ilmiy natijalar asosida: Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari etnografik leksikasini qiyosiy, etimologik, statistik, semantik-struktur tahlil qilish asosida ularni izohli lug‘atlarda berish, bosh so‘z va uning lug‘at maqolasi tartibni berish haqidagi nazariy ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-A1-G007 «Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida» mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasida foydalanilgan (O‘zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2021 yil 22 apreldagi 17.01/108-son ma’lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq naql-maqollarida etnografizmlarning shakllanishi bilan bilan bog‘liq tarixiy manbalarni o‘rganish asosida to‘y-marosim etnografizmlarining tasnifi, ularning o‘ziga xosligi, paydo bo‘lish sabablarini aniqlash, etnoleksik birliklarni mavzuviy guruhlarga ajratish asoslari ochib berilgan; Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimi etnografizmlari izohli lug‘ati ni tuzishning ilmiy asoslarini yaratish haqidagi tavsiyalardan Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimi etnografizmlari izohli lug‘atini yaratishda foydalanilgan (Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimi etnografizmlari qisqacha izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at. – Mazori Sharif: Do‘ston nashr-matbaa, 2021. – 102 b. ISBN 978-9936-1-0411-2 ). Natijada Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimi etnografizmlari izohli lug‘ati yaratilgan; Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimlariga oid materiallar asosida Afg‘oniston Respublikasi Balx viloyatining Paykon televideniyasi tomonidan tayyorlangan “Payki pago” dasturida foydalanilgan (Paykon televideniyasining 2021 yil 21 yanvardagi 41-son ma’lumotnomasi, <https://youtu.be/DWaXdmjtjyyE>). Natijada ko‘rsatuvlarning ma’naviy va madaniy mazmunining boyishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari bo‘yicha 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza qilingan va aprobatasiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 8 ta ilmiy maqola va tezislар chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiyligi hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, obyekti va predmeti, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari etnografik leksikasining o‘ziga xos xususiyatlari**” deb nomlanib, unda Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari etnomadaniy holati, Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari etnografik leksikasi taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillar, Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari leksikasining tarixiy-etimologik xususiyatlari tahlil etiladi.

Shimoliy Afg‘oniston asrlar davomida sivilizatsiya chorrahalaridan biri bo‘lib keldi. Unda qadimiy xalqlar etnomadaniy turmush tarzi, iqtisodiyoti, etnogenezi bilan bog‘liq tarixiy va madaniy merosning chuqur izlari mavjud. Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari etnografizmlari hozirga qadar yaxlit holda o‘rganilgan emas.

Afg‘oniston etnik jihatdan ko‘pmillatli xalq. Bu holat barcha jarayonlarda, xususan, hudud etnografiyasi, etnografizmlarida ham integratsion holatni namoyon qiladi. Hududda istiqomat qiladigan etnoslar: pushtun, turkman, tojik, o‘zbeklarning to‘y-marosim etnografizmlarida ham uyg‘un holatlarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, turkman, tojik xalqlari to‘y-marosim etnografizmlari shu hududlarda yashovchi o‘zbeklarning to‘yga oid etnografizmlari bilan uyg‘unlik hosil qilishi barobarida o‘ziga xoslikni ham ma’lum darajada saqlab qolgan.

Afg‘oniston o‘zbeklari etnomadaniy holatining muhim jihatlari u yerda istiqomat qilayotgan xalqlarning to‘y marosimlari, urf-odatlarida ham namoyon bo‘ladi. Hududda yashayotgan tojik, turkman xalqlari urf-odatlari va an’analari Afg‘oniston o‘zbeklari bilan uyg‘unlikni tashkil etadi. Sovchilik jarayoni tojiklarda “**xost goriy**” “**gap zani**” – *sulh tuzuvchilar, bitim tuzuvchilar*; yoki “**asokoli**”, ya’ni *oqsoqollar* deb nomlanadi. Bunday deyilishiga sabab shuki, sovchilikka odatda qariyalar borishgan. Sovchilik jarayoni “**Xostgoriy**” tojikcha so‘z bo‘lib – *uchrashmoq*, kelinni tanlash uchun sovchilikka borish, “Xost” degani istak, istash degan ma’noni bildiradi. Xostkoriy sovchilik ma’nosiga teng keladi. Afg‘oniston o‘zbeklari orasida ham faol ishlataladi. Masalan, o‘g‘lim uchun xostkorlikka bordim. Tojik elatlarida unashtirish to‘yi “**Fotihayi to‘yi**” deb nomlanadi. Unashtirish jarayonida kuyovning ota-onalari kelinga boshdan-oyoq sovg‘alar, kiyim-kechaklar taqdim qilishadi hamda bu *sarupo* deb nomlanadi. Aynan shu jarayon Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari etnografizmlarida *sarpo*, *sarpoy* nomlari bilan ataladi. Tojiklarda to‘y, asosan,

*to'y, to'y arusi* deyiladi<sup>17</sup>. Afg'oniston turkmanlarining ham to'y marosimlari o'ziga xoslikni tashkil etadi va shu bilan birga farqlovchi xususiyatlarni namoyon qiladi. Turkmanlarda to'y boshlash jarayoni qarindoshlik aloqalarini bog'lovchi kishilar orasidagi kelishuvdan boshlanadi. Turkmanlarda erkaklar kelinni dugonalari bilan birga gilam yo qolina o'rabi kajovaga solib, kuyovning uyiga olib borishadi. Shuningdek, kelinni kuyov qishlog'iga olib ketadigan paytda kelinning oila va yaqinlariga bog'liq kishilar tomonidan "**Kesak otish**" marosimi boshlanadi. Bu marosimda yosh bolalar ramziy ma'noda kesaklarni otishadi. Afg'oniston o'zbeklarining ayrim hududlari (Juvuzjon viloyatining Shiburg'on mahallalari va qishloqlari)da, pushtun (Balx viloyatining Balx tumanida) aholisida to'y marosimlarida "**Kesak otish**" odati hali ham kuzatiladi.

O'zbek tilshunosligida etnografizmlarni yozib olib o'rganish ildizi bir ming yillikka tutash. Buyuk qomusiy olim Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida *to'y* atamasi qayd etilmagan. Biroq unda *todundi*, *to'yundi*, *todg'undi* *to'zg'urdi* kabi *tod* o'zagidan yasalgan 18 ta leksema qayd etilgan. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy "sovchi-kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar yetkazuvchi" – deb yozadi<sup>18</sup>. Tilshunos olim Abdusamatod Jo'raboyev shu dalilga asoslanib *to'y so'zi* *to'ymoq fe'* lining o'zagi *to'ydan* hosil bo'lgan degan fikrni bayon etadi<sup>19</sup>. Bu fikrlardan shuni anglash mumkinki, *to'y so'zi* keyinchalik iste'molda faol qo'llangan bo'lsa-da, uning ma'no anglatgan xususiyatlari bir necha asrga borib taqaladi.

Afg'oniston o'zbeklari etnografizmlari, asosan, etnografiya hamda leksikografiyaga oid ishlarda, o'z aksini topgan. Afg'on ziyorilari Fayzullo Aymoq, Nurullo Oltoy, Ibrohim Rahim, Usmon Orif, Halim Yorqin kabilarning ishlarida Shimoliy Afg'oniston o'zbek etnomadaniyatiga xos atamalarni uchratish mumkin<sup>20</sup>.

Shimoliy Afg'oniston o'zbek etnografizmlari hudud aholisining qadim milliyigini o'zida saqlab qolishi bilan bir qatorda, etnografik leksika o'zining butunlay tarixiy taraqqiyoti davomida faqat ichki imkoniyatlar asosida rivojlanmasdan, balki tashqi manbalar hisobiga ham boyib kelgan. Shunga asoslangan holda Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari *to'y-marosim* etnografik leksikaning boyish manbalarini quyidagi guruhlarga bo'ldik:

1. Umumturkiy qatlam.
2. Arabiy qatlam.
3. Fors-tojikcha qatlam.

<sup>17</sup> Дониёров А. Бўриев О. Аширов А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: "Янги нашр" нашриёти, 2011. – В.147.

<sup>18</sup> Mahmud Koshg'ariy. "Devoni lug'ati-t- turk". Qosimjon Sodiqov nashri. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2017.

<sup>19</sup> Жўрабоев А. Ўзбекистонда тўй-маросим номлари (Андижон групса шевалари материаллари асосида) филол.фан.ном. дисс. – Тошкент, 1971.

<sup>20</sup> Махмуд Ҳалим йўрқин. "Uzbek language phraziologic dictionary (in Afghanistan uzbek language). – Tehron, 2013.

**1. Umumturkiy qatlam.** Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimi etnografik leksikasida sof turkiy o'zakdan yasalagan etnografizmlar nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan, "to'y", "sovchi", "kuyov", "kelin", "quda", "o'lan", "qalin", "qalliq", "qo'noq", "qo'shan", "sep-seb", "sovrun", "uloq" kabi etnografizmlar.

Afg'oniston o'zbeklari to'y marosim etnografizmlari tarkibida sof turkiy so'zlarga qo'shimchalar qo'shilishi bilan yasalgan so'zlar ham ko'phillikni tashkil etdi: "to'y-lik", "to'y-on", "sov-chi", "besh-ik", "qo'noq-chi" kabilar.

**2. Arabiy qatlam.** Barcha O'rta Sharq xalqlari singari Afg'oniston o'zbeklari orasida ham arabcha nomdagi etnografizmlarning faol ishlatilishini kuzatish mumkin. Bu nomlarning ba'zilari, shuningdek, arab tilidan o'tib, keyinchalik butunlay o'zlashib ketgan *usta*, *xatna*, *sunnat*, *nikoh* kabi so'zlar to'y marosimini ifodalovchi qo'shma birikma so'zlarni hosil qilishda ham ishtirok etadilar. Masalan, "*nikoh puli*" "*nikoh suvi*", "*nikoh to'yi*", "*usta yo'qadi*", "*xatna to'yi*", "*sunnat to'yi*" va hokazo. Shu o'rinda qayd etish o'rinligi, arab tilidan o'zlashgan ayrim so'zlarning etnografik leksikada farqli ma'noda qo'llanilish hollari uchraydi. Masalan, "Arabcha-ruscha lug'at"da *nikoh* atamasining ma'nosи "uyylanmoq, erga chiqmoq, nikohlanish" tarzida izohlanadi<sup>21</sup>. O'zbek tili izohli lug'atida ham shunday ma'noda keladi<sup>22</sup>. Etnografik leksika sifatida u "turmush quruvchi ikki yoshni birlashtirish sifatida domla tomonidan o'qiladigan oyat" ma'nosida ishlatiladi.

**3. Fors-tojikcha qatlam.** Shimoliy Afg'oniston o'zbek elatlari yashaydigan hududlarning katta qismida forsiyzabon aholi istiqomat qiladi. Ularning turmush tarzları, madaniyati, urf-odatlari bir-biriga ijodiy ta'sir ko'rsatib keldi. Bu ayniqsa, fors va o'zbek elatlarining urf-odat, tili borasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shimoliy Afg'oniston o'zbek elatlari etnografizmlari tarkibidagi fors-tojikcha etnografizm nomlarini quyidagicha guruhlarga ajratgan holda ifodalash mumkin:

1) **sof fors-tojikcha etnografizmlar:** *gulxan*, *lafz guli*, *lafzgiri*, *duxtari xun*, *baddodan*, *chillagurizon*, *rubinon*, *xoskorlik*, *xudoyi*, *ohistabiru*, *nomguya*, *nomzod*, *dastor bandi*, *gashtak*, *jilovgir*, *jomaburon*, *kadxudo*, *kayvoni* kabi;

2) **fors-tojikcha so'zlarning o'zbekcha nomlarga qo'shilishidan hosil bo'lgan etnografizmlar:** *dasturxon* *yubordi*, *sharbat* *yalatti*, *poyandoz* *soldi* kabi;

3) **o'zbekcha so'zning fors-tojikcha so'zga qo'shilishidan tarkib topgan etnografizmlar:** *kuyovsаро*, *kelinsаро*, *kuyovjo'ra* kabi;


4) **fors-tojikcha so'zga o'zbekcha affiksning qo'shilishidan yasalgan etnografizmlar:** *bazmchi*, *dasturxonchi*, *payshanbalik* kabi.

Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari etnografik leksikasiga oid bo'lgan hamda tadqiqotimizning ilova qismiga kiritilgan jami 531 ta etnografik nomlarni etimologik jihatdan shakllanishi quyidagi diagrammada ko'rsatib o'tilgan.

<sup>21</sup> Арабского-русский словарь. – М. 1970. – С.1055.

<sup>22</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М. 1981. – Б. 508.

Ularning ko‘rsatkichini quyidagicha ifodalash ham mumkin: o‘zbekcha 276 ta (52%), forscha 70 ta (13%), arabcha 24 (2%), o‘zbekcha-forscha 87 ta (16%), o‘zbekcha-arabcha 61 ta (12%), arabcha-forscha 11 ta (2%).



Dissertatsiyaning ikkinchi bobiga “**Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosim etnografik leksikasining tizimi xususiyatlari**” deb nomlanib Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimi etnografik leksikasining mavzuviy guruhlari, shakliy va ma’noviy xususiyatlari tahlil etilgan. Hudud etnografik leksikasi mavzuviy jihatdan guruhlarga bo‘lingan holda tavsiflanib, shakliy hamda ma’noviy xususiyatlari o‘rganib chiqilgan.

O‘zbek xalqining an'anaviy to‘y marosimlari va unda amalga oshiriladigan qator udumlari leksikasi hamda uning leksikologik tadqiqi, mavzuviy jihatdan bo‘linishi borasida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Folklorshunos Mahmud Sattor “O‘zbek udumlari” kitobida to‘ylarning xalq hayotida muhim ekanligini ta’kidlagan holda ularning quyidagi turlarini bayon qilib o‘tadi:

- 1) beshik to‘y;
- 2) muchal to‘y;
- 3) hovli to‘y;
- 4) sunnat to‘y<sup>23</sup>.

Yana bir folklorshunos Hayot Ismoilov o‘zbek to‘ylarini quyidagi ma’noviy guruhlarga ajratadi:

- 1) muhim sana bilan bog‘liq to‘ylar;
- 2) sunnat to‘ylari;
- 3) yigitlik to‘ylari;
- 4) nikoh to‘yi;
- 5) yangicha to‘y marosimlari;
- 6) oilaviy to‘ylar<sup>24</sup>.

Etnografizmlar borasida tadqiqotlar olib borgan olim N.Mirzayev Qashqadaryo viloyati o‘zbek etnografizmlarini quyidagi semantik guruhlarga bo‘ladi:

- 1) nikoh bilan bog‘liq etnografizmlar;
- 2) bolaning tug‘ilishi va ulg‘ayishiga xos etnografizmlar;
- 3) xatna to‘yiga doir etnografizmlar;

<sup>23</sup> Саттор Махмуд. Ўзбек удумлари. – Тошкент: Чўлпон, 2007. – В. 103.

<sup>24</sup> Испоилов Х. Ўзбек тўйлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – В. 25.

4) milliy sport o‘yinlari, an’analar, kattalar va bolalar o‘yini hamda xursandchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan etnografizmlar;

5) umumxo‘jalikka oid odatlar bilan bog‘liq bo‘lgan etnografizmlar;

6) ba’zi diniy odat va marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan etnografizmlar;

7) ayrim kasb va odatlarga oid etnografizmlar<sup>25</sup>.

Janubiy Xorazm etnografik leksikasi borasida tadqiqot yana bir tadqiqotchi Y.Bobojonov hudud shevalaridagi etnografizmlarni quyidagicha tasnifini keltirib o‘tadi:

1) inson tug‘ilishi va uning chilla davri bilan bog‘liq etnografizmlar;

2) to‘y (sunnat to‘yi va nikoh to‘ylari) etnografizmlari: to‘yga qadar, to‘y paytida, to‘ydan so‘ngi marosimlarga oid etnografizmlar;

3) motam-marosimni ifodalovchi etnografizmlar.<sup>26</sup>

Bu tasniflar, albatta, ancha keng va to‘y marosimlarining mavzuviy guruhlarini o‘rganishda ancha qulay. Yuqoridagi tasniflar asosida Shimoliy Afg‘oniston to‘y marosimi etnografik leksikasini quyidagi ma’noviy guruhlarga bo‘lib tadqiq etish bizningcha o‘rinli:

### **I. Oilaviy to‘y marosimlar:**

a) sunnat to‘yi;

b) nikoh to‘yi;

c) yosh bilan bog‘liq to‘y marosimlar;

d) muchal to‘yi;

### **II. Din bilan bog‘iq to‘y marosimlar**

a) quron to`yi;

b) mavlud to‘yi;

c) mullo to‘yi;

d) salomnama;

e) xudoyi;

f) dastor bandi;

h) savod to‘yi;

i) payg‘ambar to‘yi;

j) hoji challadi;

k) aqiba;

l) xatmiqur’on ijobat (qalliq);

m) nikoh; nashrah marosimi;

### **III. Ijtimoiy to‘y marosimlari:**

a) kurash marosimi

b) uloq marosimi

c) xirmon to‘yi

d) oxir o‘jak to‘yi

<sup>25</sup> Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси (Қашқадарё вилояти ўзбек шевалари материаллари асосида): Фил.фун.канд.дисс. – Тошкент, 1971. – В. 54-56

<sup>26</sup> Бобоҷонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси: фил. фунлари номзоди дисс. автореферат.

– Тошкент, 1997. – В. 7.

- e) hosil to‘yi
- f) qaboq to‘yi
- g) arsa xudoyi marosimi

#### **IV. To‘y marosimiga oid nomlar.**

Bolaning tug‘ilishidan sunnat to‘yi bo‘lgunga qadar o‘tkaziladigan to‘ylar:

- a) chilla to‘yi;
- b) aqiqa marosimi;
- c) beshik to‘yi;
- d) besh kecha to‘yi;
- e) tish to‘yi;
- f) soch to‘yi;
- g) qadam kulcha (oyoq to‘yi);
- h) savod to‘yi;
- i) kokil to‘yi;
- j) kindik to‘yi.

Bolaning sunnat to‘yi va undan keyin uylangungacha bo‘lgan to‘ylari:

- a) sunnat to‘yi (bu to‘yni ba’zi joylarda kesak to‘yi ham deb ataydi);
- b) ism to‘yi;
- c) mullo to‘yi;
- d) lallovli to‘yi.

To‘y-marosim etnografizmlarining o‘tkazilish jarayoniga bo‘g‘liq holda ularni quyidagicha guruhlarga tasnif qilishni o‘rinli hisobladik:

1. To‘yga qadar o‘tkaziladigan to‘y-marosim nomlari:

- a) shayton aralashma;
- b) xino kechasi;
- c) choygashtak;
- d) go‘dak chaqildi;
- e) jomaburon;
- f) hayitlik iydlik;
- g) sirbonato‘y;
- h) mujaratlik kechasi;

2. To‘y jarayonida o‘tkaziladigan marosim nomlari:

- a) ona sofi;
- b) oyna sharbat;
- c) nikoh quydi;
- d) chilla soldi (shoangushtariy);
- e) kampir o‘ldi;
- f) sarpo kiygizish;
- g) xinavandon;
- h) dangana.

3. To‘ydan so‘ng o‘tkaziladigan etnografizmlar nomlari:

- a) kuyov challadi;
- b) kelin challadi;

- c) quda challadi;
- d) yuz ko‘rimchi;
- e) tela-tela kuni;
- f) rubinon.

Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimi etnografizmlari leksikasi tuzilishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Sodda nomlar.
2. Qo‘shma nomlar.
3. Birikma nomlar.
4. Juft nomlar.
5. Takroriy nomlar.

**Sodda nomlar.** O‘z tarkibida so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi affikslarning bo‘lish-bo‘lmasligiga qaramay, yolg‘iz bir o‘zakdan iborat bo‘lgan nomlar sodda nom hisoblanadi: *to ‘y, xatna, nikoh, taboq, eydlik, ijobat, sarpoj, ko‘rmana, mahr, kelin, kuyov, yanga, kurash, to ‘yona* va hokazo.

**Qo‘shma nomlar.** SHAO‘ to‘y marosimi etnografizmlarini tekshirish natijasida shunga amin bo‘ldikki, shevada, to‘y marosimi va uning rasm-rusm, odatlarni atashda so‘z o‘zaklarini bir-biriga qo‘shib, qo‘shma nom tuzish faol usul. Misollar: *qandsochdi, sepyig‘di, kampir o‘ldi, non ushatdi, oyoq bosdi, kengash oshi, soch siypar, to ‘yboshi, to ‘yxat, qadam kulcha, sava cho‘p* va shu kabilar.

**Birikma nomlar.** Atash vazifasini o‘tovchi to‘g‘ri va ko‘chma ma’noli birikmalar, birikma nom. Misollar: *beshik to ‘yi, soch to ‘yi, moshin to ‘yi, quda chaqirdi, qiz sepi, sep ochar to ‘yi, ota challadi, kichik quda, katta javchi, ko‘rpa bichdi, mavlud to ‘yi, sunnat to ‘yi* va hokazo.

**Juft nomlar.** To‘y marosimi nomlari ichida juft nomlar unchalik ko‘pchilikni tashkil etmaydi: *kelin-kuyov, oyi-kun, ko‘rpa-yostiq*. Bunday nomlar umumtil leksikasidagi tayyor juft so‘zlarni to‘y marosimi va rasm-odatlarni nomlashga ham ko‘chirish asosida vujudga kelgan. Bunda umumtildagi so‘z ma’nosining to‘y marosimini ifodalashga mos kelishi asos qilib olingan.

**Takroriy nomlar.** Semantik uslub bilan hosil bo‘lgan *yor-yor, tayla-tayla, to ‘qqiz-to ‘qqiz* kabi nomlar takroriy nomlar.

Demak, to‘y marosimi nomlari tuzilishiga ko‘ra ham turli guruhlarga bo‘linadi. Har xil terminologik tizimga kiruvchi atamalar tuzilishiga ko‘ra ko‘pincha sodda, qo‘shma va tarkibli bo‘ladi. Etnografik leksikada esa sodda, qo‘shma va birikma nomlar bilan bir qatorda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, juft va takroriy nomlar ham uchraydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobи “**Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimi etnografizmlarining leksikografik talqini masalalari**” deb nomlangan. Unda “Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y marosimi etnografizmlari izohli lug‘ati” manbalari, ushbu lug‘atga birliklarni tanlash va izohlash masalalari amaliy va nazariy jihatdan yoritilgan.

